

BOSHLANG'ICH SINIF O'QUVCHILARIGA GEOMETRIK TUSHUNCHALARNI ZAMONAVIY USULLAR YORDAMIDA TANISHTIRISH.

Haydarov To'liqin Turg'unbayevich

Katta o'qituvchi. Jizzax politexnika instituti.

Annotatsiya: Ushbu maqolada boshlang'ich sinf o'quvchilariga geometrik tushunchalarni shakllantirishda zamonaviy usullarni qo'llashning samarali yo'llari yoritilgan. Xususan, axborot texnologiyalari, interfaol metodlar va ko'rgazmali vositalar yordamida o'quvchilarda geometrik shakllar va ularning xossalari haqidagi dastlabki bilimlarni hosil qilish imkoniyatlari tahlil etiladi.

Kalit so'zlar: boshlang'ich ta'lim, geometriya, zamonaviy usullar, interfaol metod, axborot texnologiyalari, ko'rgazmalilik.

INTRODUCING GEOMETRIC CONCEPTS TO PRIMARY SCHOOL STUDENTS THROUGH MODERN METHODS

Khaidarov Tulkin Turgunbaevich

Senior teacher. Jizzakh Polytechnic Institute.

Abstract: his article discusses effective ways of introducing geometric concepts to primary school students using modern methods. In particular, it analyzes the opportunities of applying information technologies, interactive methods, and visual aids to help students develop their initial knowledge about geometric shapes and their properties.

Keywords: primary education, geometry, modern methods, interactive approach, information technologies, visualization.

Boshlang'ich ta'lim bosqichi o'quvchilarda matematik tasavvurlarni shakllantirishda eng muhim davrlardan biridir. Ayniqsa, geometrik tushunchalarga oid bilimlarni o'zlashtirish, ularning tafakkurini, fazoviy tasavvurini, mantiqiy fikrlash qobiliyatini rivojlantirishda katta ahamiyat kasb etadi. Bugungi kunda ta'lim jarayonida zamonaviy pedagogik texnologiyalar va interfaol usullardan foydalanish geometrik bilimlarni samarali o'zlashtirishga imkon bermoqda.

Ta'lim o'qituvchi va o'quvchilarning hamkorlikdagi faoliyati bo'lib, shu jarayonda shaxsning taraqqiyoti, uning ma'lumoti va tarbiyasi ham amalga oshadi. Darslarda o'qituvchi o'z bilimi, ko'nikma va malakalarini mashg'ulotlar vositasida o'quvchilarga yetkazadi, o'quvchilar esa uni o'zlashtirib borishi natijasida undan foydalanish qobiliyatiga ega bo'ladi. O'rganish jarayonida o'quvchilar o'zlashtirishning turli ko'rinishlaridan foydalanishadi, ya'ni o'zlashtirayotgan ma'lumotlarni qabul qilish, qayta ishlash hamda amaliyotga tatbiq etishda o'ziga xos tafovutlarga tayanadi. Ta'lim jarayonida o'qituvchi va o'quvchilarning dars paytidagi hamkorligi, o'quvchilarning mustaqil ishlashi, sinfdan tashqari ishlar shaklida ta'lim va tarbiya masalalari hal etiladi.

Hozirgi kunda ta'lim jarayonida interfaol metodlar va axborot texnologiyalarini o'quv jarayonida qo'llashga bo'lgan qiziqish kundan-kunga ortib bormoqda. Bunday bo'lishining sabablaridan biri, shu vaqtgacha an'anaviy ta'limda o'quvchilar faqat tayyor bilimlarni egallashga o'rgatilgan bo'lsa, zamonaviy texnologiyalardan foydalanish esa ularni egallayotgan bilimlarini o'zlari qidirib topish, mustaqil o'rganish va fikirlash, tahlil qilish, hatto yakuniy xulosalarni ham o'zlari keltirib chiqarishga o'rgatadi. O'qituvchi bu jarayonda shaxs rivojlanishi, shakllanishi, bilim olishi va tarbiyalanishiga sharoit yaratadi va shu bilan bir qatorda boshqaruvchilik, yo'naltiruvchilik funksiyasini bajaradi.

Boshlang'ich sinf o'quvchilariga geometrik tushunchalarni tanishtirishda quyidagi zamonaviy usullar alohida ahamiyatga ega:

Ko'rgazmalilik usuli – turli shakllar, predmetlar va maketlar yordamida bolalarda geometrik shakllar haqidagi ilk tasavvurlarni hosil qilish.

Interfaol metodlar – “Aqliy hujum”, “Klaster”, “Insert” kabi metodlardan foydalanib, o'quvchilarning mustaqil fikrlashini va bilimlarni faol o'zlashtirishini ta'minlash.

Axborot texnologiyalari – multimedia vositalari, animatsiyalar va interaktiv dasturlar yordamida geometrik shakllarni dinamik ko'rsatish, ularning xossalarini oson tushuntirish.

O'yin metodlari – geometrik shakllar asosida turli didaktik o'yinlar tashkil etish orqali o'quvchilarning qiziqishini oshirish.

Mazkur usullar o'quvchilarni faollikka chorlaydi, ularda bilimlarni mustaqil ravishda izlab topish, tahlil qilish, kuzatish va xulosa chiqarish ko'nikmalarini shakllantiradi.

Dars mashg'ulotlarida o'yin- topshiriqlarni takrorlash yoki mustahkamlash darslarida foydalanilsa ijobiy natija beradi. O'yin-topshiriqning qaysi bir turini tanlash darsning turiga, sinf o'quvchilarining o'yin-topshiriqlarni bajarishga o'rgatilganlik darajasi, ularning bilim saviyasi, mustaqil ijodiy ishlash imkoniyatlari, o'rganilganlarni xotirada tez tiklay olishi, ijodkorlikning qay darajada shakllanganligiga ham bog'liq bo'lishi kerak.

Bugungi kun o'qituvchilaridan ilg'or pedagogik va yangi axborotlar texnologiyalaridan o'quv jarayonida foydalanishni talab etmoqda. Yuqoridagilardan kelib chiqib, tajribalarimiz asosida dars mashg'ulotlarida interfaol metodlarni qo'llash orqali ta'lim- tarbiya berish yo'llariga doir fikrlarimizni bayon etamiz. O'ylaymizki, bu o'quv mashg'ulotlari samaradorligini oshirishda amaliy yordam beradi. Shuningdek, o'quvchilarni o'z yo'nalishini tanlash va mustaqil hayotga tayyorgarlik ko'nikmalarini shakllantirishdek mas'uliyatli vazifani bajarishda ularning yaqin ko'makchilaridan biriga aylanadi. Quyi sinflar kesimida ayrim mavzular asosida o'qitishning zamonaviy usullarini tatbiq etishni ko'ramiz.

“Videotopshiriq” metodi.

Hozirgi kunda pedagogik faoliyatda turli axborot vositalari (kompyuter, televideniya, radio, slayd, video va audio magnitafonlar) yordamida ta'lim jarayoni tashkil etilishiga alohida e'tibor qaratilmoqda. O'qituvchilar oldida ta'lim jarayonida turli axborot vositalaridan o'rinli va maqsadga muvofiq foydalanish vazifasi turibdi.

Videotopishmoq metodidan foydalanishda quyidagi harakatlar amalga oshiriladi:

- O'quvchilar e'tiboriga o'rganilayotgan mavzu mohiyatini tasviriy yoritishga yordam beruvchi izohlarsiz bir nechta videolavha namoyish etiladi:
- O'quvchilar har bir lavhada qanday jarayon aks ettirilganini izohlashadi:
- Jarayonning mohiyatini daftarlariga qayd etishadi:
- O'qituvchi tomonidan berilgan savollarga javob qaytarishadi:

Mazkur metod asosida mavzuga doir kompyuter orqali videolavha namoyish etiladi. O'quvchilar videolavha mavzusi, unda ifodalangan mavzu haqida o'z fikr-mulohazalarini bildirishadi. Masalan: Quyi sinflarda (1-4-sinlar) fazoviy jismlar bilan tanishtirilganda kub, slindr, konuslarning yasalishi chizmalar yordamida ko'rsatilgan. Bu jarayon videolavha orqali ko'rsatilsa va yasash vazifasi qo'yilsa o'quvchilar tasavvuri yaxshi rivojlanadi. Bundan tashqari bu kabi geometrik shakllar qayerlarda uchrashini ko'rsatib bersak maqsadga muvofiq bo'ladi.

Bizningcha, ta'limiy o'yinlarga qo'yiladigan asosiy talablar quyidagilardan iborat:

1. Ta'limiy o'yinlar o'quvchilar yoshiga mos bo'lishi kerak:
2. O'yinlar o'tilayotgan mavzu mazmun- mohiyatiga mutanosib bo'lishi lozim:
3. Ta'limiy o'yinlarni o'tkazish vaqti aniq belgilanishi shart;
4. Ta'limiy o'yinlar ham ta'limiy, ham tarbiyaviy ahamiyatga ega bo'lishi kerak:
5. Ta'limiy o'yinlarning o'tkazilish maqsadi, ahamiyati belgilanishi lozim.

Yuqoridagi talablarga amal qilingandagina dars samaradorligi ortadi va zamonaviy texnologiyalar ta'lim samaradorligiga xizmat qiladi. Boshlang'ich ta'lim jarayonida geometrik tushunchalarni zamonaviy usullar yordamida tanishtirish o'quvchilarning bilimini chuqurlashtiradi, fazoviy tafakkurini rivojlantiradi va kelajakdagi matematik tayyorgarliklari uchun mustahkam poydevor yaratadi. Shunday qilib, interfaol metodlar, axborot texnologiyalari va ko'rgazmali

vositalardan oqilona foydalanish boshlang'ich ta'lim sifatini oshirishning muhim omili hisoblanadi.

Foydalanilgan adabiyotlar ro'yhati:

1. Muslimov N.A. Bo'lajak kasb ta'limi o'qituvchilarini kasbiy shakllantirish // Monografiya. – T.: Fan, 2004-130b.
2. Umrzoqova B. Abdusaidov S. "PROFESSIONAL TA'LIMNING RAQAMLI MALAKA OSHIRISH MUHITIDA TINGLOVCHILARNING MUSTAQIL O'QUV FAOLIYATGA TAYYORGARLIGI " "Экономика и социум" №9(124) 2024
3. Adilov B. ORGANIZATIONAL AND PEDAGOGICAL FOUNDATIONS OF THE FORMATION OF PROJECT-DESIGN COMPETENCE OF STUDENTS OF THE ENGINEERING DIRECTION //Science and innovation. – 2022. – T. 1. – №. B4. – C. 318-322.